



UDK: 902.2:903.23(575.3.540)

Guljaxon SHAYDULLAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: shaydullayeva87@list.ru

Termiz davlat universiteti Arxeologiya kafedrasida dotsenti t.f.f.d. (PhD) Odiljon Xamidov taqrizi asosida

BAQTRIYA LAZURITINING QADIMGI XARAPPA VA MESOPOTAMIYA SHAHARLARIGA TARQALISHI BO'YICHA YOZMA VA ARXEOLOGIK MANBALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Baqtriya (Badaxshon) hududida joylashgan qadimgi lazurit konlari va ushbu qimmatbaho toshning Xarappa va Mesopotamiya kabi Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari markazlariga tarqalishi masalasi yozma hamda arxeologik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda lazurit eneolit va ilk bronza davrlaridan boshlab diniy-ramziy, badiiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mineral sifatida qo'llanilgani, uning asosiy savdo yo'llari Eron hududidagi Shahri So'xta va Tepai Xisor kabi manzilgohlar orqali shakllangani ko'rsatiladi. Shu bilan birga, Baqtriya va Xarappa madaniyati o'rtasida lazurit konlarini egallash uchun kechgan raqobat jarayonlari, Mesopotamiya shaharlarida esa lazuritga ishlov berish va uni hukmdorlik, obro'-e'tibor timsoli sifatida qo'llash amaliyoti arxeologik dalillar orqali asoslanadi. Maqolada lazurit savdosi Qadimgi Sharq xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalar, iqtisodiy munosabatlar va siyosiy tafovutlarni anglashda muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Baqtriya, Badaxshon, lazurit, Xarappa madaniyati, Mesopotamiya, Turon basseyini, Shaxri So'xta, Tepai Xisor, Sho'rto'qay, Sopolli madaniyati, qadimgi savdo yo'llari, arxeologik manbalar, mineral savdosi.

WRITTEN AND ARCHAEOLOGICAL SOURCES ON THE DISTRIBUTION OF BACTRIAN LAPIS LAZULI TO THE ANCIENT CITIES OF HARAPPA AND MESOPOTAMIA

Annotation

This article examines the ancient lapis lazuli deposits located in Bactria (Badakhshan) and the distribution of this valuable mineral to major centers of Ancient Eastern civilizations such as Harappa and Mesopotamia, based on written and archaeological sources. The study demonstrates that since the Eneolithic and Early Bronze Age, lapis lazuli held significant religious, artistic, and social value, and that its main trade routes were formed through key sites such as Shahr-i Sokhta and Tepe Hissar in the territory of Iran. The research also analyzes the competition between Bactria and the Harappan culture for control over lapis lazuli mines, as well as the practice of lapis processing in Mesopotamian cities, where the mineral symbolized royal power and prestige. The article emphasizes the role of lapis lazuli trade as an important factor in understanding the cultural interactions, economic relations, and political dynamics among the civilizations of the Ancient East.

Key words: Bactria, Badakhshan, lapis lazuli, Harappan culture, Mesopotamia, Turan Basin, Shahr-i Sokhta, Tepe Hissar, Shorotukay, Sapalli culture, ancient trade routes, archaeological sources, mineral trade.

ПИСЬМЕННЫЕ И АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИСТОЧНИКИ О РАСПРОСТРАНЕНИИ БАКТРИЙСКОГО ЛАЗУРИТА В ДРЕВНИЕ ГОРОДА ХАРАППЫ И МЕСОПОТАМИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются древние месторождения лазурита, расположенные в Бактрии (Бадахшане), и распространение этого ценного минерала в крупные центры древневосточных цивилизаций, таких как Хараппа и Месопотамия, на основе письменных и археологических источников. В исследовании показано, что начиная с эпохи энеолита и раннего бронзового века лазурит обладал значительной религиозной, художественной и социальной ценностью, а основные торговые пути его экспорта проходили через ключевые пункты, такие как Шахри-Сухте и Тепе-Хисар на территории Ирана. Кроме того, анализируется соперничество между Бактрией и культурой Хараппа за контроль над лазуритовыми месторождениями, а также практика обработки лазурита в городах Месопотамии, где этот минерал являлся символом царской власти и престижа. В статье подчеркивается значимость торговли лазуритом как важного фактора в понимании культурных взаимодействий, экономических связей и политической динамики между цивилизациями Древнего Востока.

Ключевые слова: Бактрия, Бадахшан, лазурит, культура Хараппа, Месопотамия, Туронский бассейн, Шахри-Сухте, Тепе-Хисар, Шуртукей, культура Сапалли, древние торговые пути, археологические источники, торговля минералами.

Lazurit ma'dani o'rta osiyoliklar tomonidan eneolit davrida kashf etilgan. Bu fikrni ishonch bilan aytishimizga sabab shundaki, Janubiy Turkmaniston hududida joylashgan Oltindepe yodgorligining eneolit davri madaniy qatlamlaridan lazuritdan yasalgan taqinchoqlar topilgan [1]. Lazurit ilk bronza davridan boshlab eng mashhur mineralga aylangan, chunki barcha Qadimgi Sharq madaniyatiga oid yodgorliklardan, ayniqsa hukmdorlarning qabrlaridan juda

bejirim qilib yasalgan taqinchoqlar, muhrlarning topilishi shunday xulosa qilishga asos bo'ladi.

Lazurit ma'dani qadimdan har xil nomlar bilan atalib kelingan, jumladan laps, laps lazurit, lazurit, la'l, badaxshon la'li, lojuvard, lazavard kabi. Albatta, ko'p nomli ma'dan bo'lishiga ham talaygina omillar mavjud. Birinchidan, rangining har xil tovlanishidan, ikkinchidan qattiq va mo'rtligidan lazurit toshlar bir-biridan farqlangan,

uchinchidan har xil tillarning ta'sirida ham mazkur ma'danning nomi ko'payib ketgan. Masalan, lojuvard arabcha "azul", ya'ni "osmon" degan ma'noni anglatadi. To'rtinchidan, qadimda insonlarning minerallar haqidagi ma'lumotlari va bilimlarining yetishmasligi, ma'danlarni bir biridan ajrata olmasligi oqibatida ham ma'danlar nomining ko'payib ketishiga sabab bo'lgan.

Lazurit haqida, ya'ni uning kimyoviy tarkibi, tabiatda qanday holatda uchrashi, joylashgan makonlari, qazib olish usullari haqida O'rta Osiyoning o'rta asrlar davri allomalaridan biri - Abu Rayhon Beruniy to'liq ma'lumotlar bergan [2].

Lazurit qimmatbaho, yumshoq tarkibli, osmon singari moviy rangli, betakror va bejirim san'at asarlari yasash mumkin bo'lgan minerallardan biri bo'lganligi sababli juda qadimdan insonlarning diqqat va e'tiborini tortgan. Insoniyat tarixidagi eng qadimgi madaniy aloqalar va savdo yo'llarining ham shu ma'dan nomi bilan atalishi bejiz emas. Albatta, gap qadimgi Baqtriya va Mesopotamiyani bog'lovchi lazurit yo'li haqida bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, Mesopotamiya shaharlarida keng tarqalgan minerallardan biri so'zsiz lazuritdir. Arxeologo – stratigrafik tadqiqotlarga ko'ra lazurit Qadimgi Sharq shaharlariga, jumladan Ur yoki Urukka ilk dinastiyalar davridan boshlab tarqalgan va ikkinchi va uchinchi dinastiyalar davrida eng ko'p uchraydigan minerallardan biriga aylangan. Albatta, Ur shahri hukmdori qabridan topilgan nodir topilmalar ham bu fikrga misol bo'la oladi. Mesopotamiya shaharlari tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak ushbu mineral "birinchi sivilizatsiya" vakillarining inqirozi davrigacha doimiy borib turganligining guvohi bo'lamiz [3].

Lazuritning tabiiy makoni Baqtriyada, ya'ni tog'li Badaxshonda joylashgan. Badaxshon lazuriti juda qadimdan ma'lum va mashhur bo'lgan. Baqtriyaning Qadimgi Sharq madaniy markazlari bilan madaniy aloqalari masalasi nafaqat O'rta Osiyo, balki Yevropa olimlari e'tiborini XIX asrdayoq tortgan. Bu qiziqishlarning sababi ham aniq, ya'ni lazuritning asosiy makoni uzoq va tog'li Badaxshonda joylashganligi bo'lgan, albatta [4]. Lazuritning Mesopotamiya shaharlariga tarqalishida eronliklarning hamda qadimgi hindistonliklarning o'rni katta bo'lgan. Ular egallagan tarixiy geografik o'rnga ko'ra, lazurit savdosida vositachi sifatida faol ishtirok etishganligi arxeologik manbalar asosida kuzatilmoqda [5]. Demak, Baqtriyani Old Osiyoning Shumer, Elam kabi qadimiy davlatlari bilan bog'lovchi yo'lining bir tarmog'i Eron orqali o'tgan [6].

Tadqiqotchilar Mesopotomiyaga lazurit ikki, quruqlik va suv yo'li orqali tarqalganligini e'tirof etishadi. Suv yo'li xarappaliklarning dengiz yo'lini kashf etganlaridan so'ng rivojlangan bo'lishi mumkin, ungacha asosiy savdo yo'li quruqlikdan olib borilgan [7].

Keltirib o'tganimizdek, tadqiqotchilarga O'rta Osiyo va Qadimgi Hindiston ilk aloqalari tarixini o'rganishga "Avesta" va "Rigveda" ma'lumotlari, Janubiy Turkmanistonning Oltindepe, To'g'aloq 21, Gonur, Janubiy O'zbekistonning Sopollitepa, Jarqo'ton, Tillabuloq, Eron hududidagi Shaxdod, Giyan, Xisor, Xarappa madaniyatiga oid Xarappa, Kalibangan kabi yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari asosiy manba bo'lib hizmat qilgan. Asosiy manba esa yodgorliklardan topilgan arxeologik artefakt – lojuvar hisoblanadi. Oks va Xarappa sivilizatsiyalari aloqalarini o'rganish, lojuvard yo'li tarixini o'rganish demakdir.

Quruqlik yo'lidagi asosiy manzilgohlar Shimoliy Eron hududida joylashgan Tepai Xisor va Eron Seistonidagi Shaxri So'xta yodgorliklaridir. Italiyalik arxeolog tadqiqotchilar Tepai Xisor yodgorligida hech kimning hayoliga kelmaydigan usulda izlanishlar olib borishgan, ular

yodgorlikning tepa qismi tuprog'i tarkibini laboratoriya analizidan o'tkazganda tuproq tarkibining juda katta foizini lazurit kukunlari tashkil qilgan. Arxeologlar tadqiqotlarini davom ettirib, qayroq toshlarning yuza qismida saqlangan changlarni ham analizdan o'tkazgan va tosh qurollar ham lazuritga ishlov berishda qo'llanilganligi aniqlangan. [8].

Mesopotamiya va Eron yodgorliklaridan topilgan lazuritdan yasalgan taqinchoqlar turi taqqoslanganda, Eron hududidagi yodgorliklarda mazkur ma'dandan yasalgan tayyor taqinchoqlar kam uchragan. Jumladan, Ur yodgorligida lazuritdan yasalgan 45 ta tip taqinchoq ma'lum bo'lsa, Eron yodgorliklarida 3 ta tip aniqlangan, xolos [9]. Keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, eron ma'dansozlari ushbu toshlarni "yarimfabrikat", xomashyo sifatida Qadimgi Sharq shaharlariga yetkazib berishgan, mesopotamiyalik ma'dansozlar esa lazurit ma'danlariga oxirgi ishlovni berishgan va tovar xolatiga keltirishgan.

Shahri So'hta yodgorligi joylashgan geografik o'rnga ko'ra tabiiy qulay bo'lib, aloqa yo'llari ustida joylashgan. Sharqiy Eron, Janubiy Turkmaniston, Afg'onistondan Belujistongacha bo'lgan hudud savdogarlari bevosita shu yerdan o'tishga majbur bo'lgan. Italiyalik professor M. Tosi o'z asarlarida bu hududni "Turon basseyni" deb ataydi [10].

O'rta Osiyo xalqlarining Qadimgi Sharq dunyosi bilan munosabatlari qanday xarakterda kechganligini aniqlash tarixiy jarayonlarni o'rganishga xizmat qiladi. Bu masalada "birinchi sivilizatsiya" vakillaridan qolgan yozma va arxeologik manbalarga murojaat qilamiz.

Mil.av. III ming yillikning oxiriga oid Mesopotamiyaning sharqdagi qo'shnilari bilan qilgan aloqalari haqida yozma manbalar saqlanib qolgan. Bu manbalar sopol doskalarga bitilgan mixsimon yozuvlar bo'lib, ilk dinastiyalar davriga oid. Ular xo'jalik, mifologik xukmdorlarning qahramonliklari, lugallarning mardonavar harbiy yurishlari, jang tafsilotlari va g'alabalari haqida bo'lib, jang natijasida g'alaba qilgan hukmdorlarning boyliklar bilan qaytganligi so'zlangan [11].

Manbalarda arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan O'rta Osiyo lazuriti, Eron xloridlari va serdoliqi haqida ma'lumotlar uchramaydi. Bilaks, arxeologik tadqiqotlar natijasida uchramaydigan, tuproq qarida saqlanmaydigan tekstil matolar, oziq-ovqat mahsulotlari haqida xabarlar saqlangan [12]. Bu holatni tadqiqotchilar Mesopotamiya ustalari uzoqdan keltirilgan ushbu qimmatbaho ma'danlarni ikkinchi yoki uchinchi qo'ldan olganligi xususida fikr bildiradi [13]. Arxeologik jihatdan ko'p uchraydigan ma'danlar va bu ma'danlardan turli xil taqinchoqlar yasagan xunarmandlar haqida ham yozma manbalarda ma'lumotlar keltirilmaydi.

Manbalarda Mesopotomiya hukmdorlarining Elam, Anshan, Marxashi, Tukrish kabi davlatlar bilan janglar olib borganligi xususida ma'lumotlar bor [14]. Keltirilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, Qadimgi Sharq mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar savdo-sotiq, xalqlarning ko'chishi va gohida urush xarakterida bo'lib, bu munosabatlar almashinib turgan.

Amerikalik sharqshunos va arxeolog olim K.Lamberg-Korlovskiyning fikriga qaraganda III ming yillikda tovar almashish xalqlar o'rtasidagi eng xarakterli vosita hisoblangan, bunda xususiy tadbirkorlar bosh vazifani bajarib, o'zaro munosabatlarda talab va ehtiyoj asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan [15]. Amerikalik yana bir olim F.Kollning qarashlari bo'yicha, shumerliklar bilan Eron o'rtasida erkin bozor munosabatlari hal qiluvchi rolni bajargan [16].

Mesopotamiya va qo'shni xalqlar o'rtasidagi munosabatlar masalasiga ayrim tadqiqotchilar, jumladan D. Potss boshqa nuqtai nazar bilan qaraydi. U K.Lamberg-Korlovskiy va F.Kollni tarixiy jarayonlarga to'g'ri baho bermagan deb hisoblaydi. Uning fikricha Mesopotamiya

qo'shni xalqlar bilan doimiy notinch, urush xolatida bo'lgan, buning asosiy sababi ma'dan konlariga hukmronlik qilish va nazorat qilish yotadi deb hisoblaydi. D. Potts ma'danlar uchun bo'lgan bu qarama-qarshilik Sharq davlatlari o'rtasidagi asosiy munosabatlarni belgilagan. Tinch savdo munosabatlari va tovar almashinish haqidagi fikrlarni u to'liq inkor etadi. Ahamoniylar imperiyasi davrigacha, ya'ni "shoh yo'li" davrigacha uzoq masofali tinch savdo yo'lining bo'lishini haqiqatdan yiroq deb hisoblaydi [17].

D. Potts fikrini tushunish mumkin, haqiqatdan ham jamoalarning ibtidoiylikka dahldor davrida erkin savdo mexanizmini anglash qiyin. Bu holatni yechishda ma'danlarga boy bo'lgan O'rta Osiyo moddiy manbalari asosida qanday xulosaga kelish mumkin, shu yo'nalishdagi manbalarga e'tibor bersak.

Badaxshon lazuriti – eng moviy rangli, qimmatbaho hisoblanadigan mineral turidir. B. Lionning tadqiqotlari bo'yicha xulosa chiqaradigan bo'lsak, mil.av. III ming yillikda Sharqiy Baqtriya, xususan To'liqon vohasida Belujiston ta'sirida o'ziga xos madaniyat shakllangan [18]. Demak, Qadimgi Sharq shaharlarida lazuritga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi natijasida Badaxshon hududini ilk bora belujistonliklar egallagan. Baqtriyaning III ming yillikka oid mahalliy aholisi haqida fanimizda aytarli ma'lumotlar yo'q. Baqtriyaning mahalliy aholisiga aylangan Sopolli va Dashtli madaniyatlari aholisi esa bu hududda III ming yillik so'ngida paydo bo'lgan [19].

Eslab o'tganimizdek, G.P. Frankfortning izlanishlari natijasida SHO'rto'qay yodgorligiga xarappaliklar tomonidan mil.av. 2200-2000-yillarda asos solinganligi aniqlangan [20]. Demak, bu voha ikkinchi marta qadimgi sharqliklar, aniqrog'i qadimgi Hind sivilizatsiyasi vakillari tomonidan "o'zlashtirilmogda".

Sho'rto'qay yodgorligi madaniy qatlamlarining guvohlik berishicha, mil.av. II ming yilliklar boshida Sopolli va Dashtli madaniyati aholisi Baqtriya egallabgina qolmadi, balki uni Qadimgi Sharq madaniyati aholisidan, ma'dan izlovchilardan ham xalos etgan. Bu holat SHO'rto'qay yodgorligi stratigrafiyasi asosida kuzatilgan, unga ko'ra SHO'rto'qay yodgorligini xarappaliklar tashlab ketgandan so'ng, bu yerda ikkinchi marta hayot tiklanadi.

Kuzatganimizdek, bu tiklanishda xarappaliklarning emas, balki Baqtriyaning mahalliy, aniqrog'i Sopolli va Dashtli madaniyatlari aholisi tomonidan amalga oshirilgan. Bu davr mil.av. 2000-1700-yillarni o'z ichiga oladi [21].

Bu ma'lumot mahalliy Baqtriya va xarappaliklarning ma'dan koni uchun bo'lgan kurashini va bu kurashda baqtriyaliklarning qo'li ustun kelganligini tasdiqlaydi. Bu stratigrafik ma'lumot Qadimgi Sharq xalqlari bilan ma'dan konlari uchun bo'lgan kurash tinch yo'l bilan amalga oshmaganligini ko'rsatadi.

Keltirilgan tarixiy va arxeologik ma'lumotlar asosida Baqtriya lazuriti va uning Qadimgi Sharq dunyosiga tarqalishi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Baqtriya ma'dan konlari eng avval To'liqon vohasiga kelib joylashgan belujistonliklar tomonidan egallangan va o'zlashtirilgan;

Baqtriya lazuriti Elam, Mesopotamiya hamda Qadimgi Hind sivilizatsiyasi shaharlariga uzluksiz ravishda olib borilgan;

Sho'rto'qay yodgorligi madaniy qatlamlari stratigrafiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, Baqtriya lazuriti joylashgan To'liqon vodiysi belujistonliklardan so'ng Xarappa madaniyati sohiblari tomonidan egallangan.

Mil.av. II ming yillik boshlaridan boshlab Sopolli madaniyati sohiblari Baqtriyaning mahalliy aholisiga aylangan va shu hududdagi ma'dan konlari hukmdorligini ham qo'lga kiritgan.

Mesopotamiyaning Eble shahar xarobasidan topilgan lazurit ma'danlari shuni tasdiqlaydiki, baqtriyaliklar lazuritni yombi, ya'ni xomashyo holatida rivojlangan shahar xunarmandlariga yetkazib bergan.

Qadimgi Sharqda lazuritga ishlov berish, har xil bejirim taqinchoqlar, muhrilar yasash ishlari bilan alohida aholi guruhlari shug'ullanishgan. Ular qimmatbaho toshlar savdosi bilan shug'ullanib, boyib ketishi natijasida Mesopotamiya ilk davlatlarining hukmdorlari darajasigacha borgan.

Baqtriyaliklar rivojlangan Qadimgi Sharq davlatlari aholisi bilan tinch savdo va madaniy aloqada bo'lgan. Ma'dan konlaridan olingan qimmatbaho toshlar savdosi ayriboshlash usulida amalga oshirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Кирчо Л.Б. В.М. Массон и Ленинградская / Санкт-Петербургская школа изучения древностей Центральной Азии // Древности Восточной Европы, Центральной Азии и Южной Сибири в контексте связей и взаимодействий в евразийском культурном пространстве (новые данные и концепции). Материалы Международной конференции. 18-22 ноября 2019 г. Санкт-Петербург. - Санкт-Петербург, 2019. - С.7-9.
2. Бериный Абу Райхон. Минералогия (Китоб ал-чавохир). – Тошкент: Фан, 1987.
3. Дьяконов И.М. Люди города Ура. - М., 1990. – С. 54.
4. Layard L. Monuments of Nineveh. - London, 1851. – P.87.
5. Чайлд, 1956 - Чайлд Г. Древнейший Восток в свете новых раскопок. - М., 1956. – 383 с.
6. Массон, 1967 - Массон В.М. Протогородская цивилизация юга Средней Азии // СА. 1967. - С. 165.
7. Tosi M, Pirerno M. Lithik technology behind the ancient lapis lazuli trade \ Expedition.1973. V.16. - P.15-23.
8. Tosi M, Pirerno M. Lithik technology behind the ancient lapis lazuli ... - P.15-
9. Potts D.T. Tepe Yahya and the End of the 4th Millenium on the Iranian Plateau – Le Plateau Iranien et l'Asie Centrale des origins a ia conquete islamique. - Paris,1977. – P. 56.
10. Tosi M, Pirerno M. Lithik technology behind the ancient lapis lazuli trade \ Expedition.1973. V.16. P.15-23.
11. Carter E, Stolper M.W. Elam. Surveys of Political History and Archaeology. – London, 1984, - p.VII.
12. Ratnager Sh. Encounters. The Westerly Trade of Harappa Civilization. - Oxford, 1981. - P. 154
13. Ratnager Sh. Encounters. The Westerly Trade of Harappa Civilization ... - P. 155.
14. Lamberg-Karlovsky. Third Millenium Models of Exchange and Models of Production. Ancient Civilizations and Trade. Albuquerque, 1975. - p.365.
15. Kohl Ph. The "Wold – Economy" of West Asia in the Third Millenium B.C. // South Asian Archaeology 1977. - Napoli, 1979.
16. Potts D.T. Tepe Yahya and the End of the 4th Millenium on the Iranian Plateau – Le Plateau Iranien et l'Asie Centrale des origins a ia conquete islamique. - Paris,1977.
17. Lyonnet B. Ceramique et peuplement du chalcolitique a la conquete arabe. (Prospections archeologiques en Bactriane orientale (1974-1978). Soes La direction de Jean-Claude Gardin. V.2). - Paris, 1997.
18. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы на юге Узбекистана. - Ташкент, 1977;
19. Аскарлов А.А. Сапаллитепа. - Ташкент, 1973; Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. - Ташкент, 1983; Аскарлов А.А.,
20. Frangfort H.P. Fouilles de Shortughai. Recherches sur L'Asie Central protohistoriques. V.I.II. - Paris: Bocard, 1989.
21. Frangfort H.P. Fouilles de Shortughai. Recherches sur L'Asie Central protohistoriques. V.I ... P. 78-83.